

IJTIMOIY TARMOQLARNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Sattorova Gulsanam

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti filologiya fakulteti 211-guruh talabasi.

Annotatsiya: Bugungi kunga kelib ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. XXI asr axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri hisoblanadi. Shunday ekan bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog'i - internetsiz tasavvur qilish mushkuldir. Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizdagi o'rnnini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo undan haddan tashqari ko'p foydalanishimiz natijasida turli muammolar kelib chiqmoqda hatto insonni jinoyat ko'chasiga boshlayotgani ham hech kimga sir emas. Eng achinarlisi shundaki, din nomi bilan ish yuritayotgan kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlarga ilintirishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqdalar. Afsuski, ko'pgina yoshlar islam dini niqobi ostida olib borilayotgan buzg'unchi harakatlarning qurboni bo'lib, din dushmanlarning quroliga aylanib qolmoqda.

Annotation: To date, social networks have become an integral part of our lives. The 21st century is the century of progress of akhbarot technologies. So it is difficult to imagine the progress of today without the world Information Network - the internet. The place of social networks in our daily lives cannot be denied. But as a result of our excessive use of it, various problems arise - it is no secret to anyone that even a person is starting a criminal street. The saddest thing is that those who are doing business in the name of religion are using social networks extensively to lure young people into their traps. Unfortunately, many young people are victims of destructive actions under the guise of Islam, and religion is becoming the weapon of enemies.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, axborot texnologiyalari, XXI asr, Facebook, YouTube, WhatsApp va Instagram, ma'naviy poklanish, ruhiy poklanish, vaqt va sotsial tarmoq, vaqt qadri, inson qadr qimmati, o'zlikni tanish.

Ijtimoiy tarmoq - bu qiziqishlari o'xshash yoki oflays aloqaga ega bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot qilish, tanishish, ijtimoiy munosabatlar yaratish uchun, shuningdek, ko'ngil ochar musiqa, filimlar va ish maqsadlarida foydalaniladigan onlayn platforma. Dastlab zamoniaviy internet aloqa vositalari yordamida elektron pochta, telekonferentsiyalar va interaktiv suhbatlar asosan biznes vazifalarini axbarot berish, muammolarni muhokama qilish ishchi aloqalarni amalga oshirdi. Ijtimoiy tarmoqlar asta sekin muloqot uchun aloqa vositasida qo'llanildi, xususan kasbiy faoliyatni amalga oshirish zarur bo'lgan aloqalarni topish vositasida foydalanildi. Shuningdek, yana ijtimoiy tarmoqlardan reklama va marketing kompaniyalari uchun ham qo'llanildi. Birinchi ijtimoiy tarmoq bu Amerika veb-sayti edi. Odnoklassniki 1995-yilda yaratilgan. Xususan ko'pchilik yoshlar vakillari uchun real hayotdan ko'ra internetda muloqot qilish qulayroq. Bu esa hozirgi vaqtida shaxsning jamiyatdagi o'z o'rnnini topishda salbiy iz qoldiradi va uni yanada cheklaydi. Hozirgi kunda dunyo bo'y lab statistik ma'lumotlarga ko'ra ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilar soni 4,8 milliardni tashkil qiladi. Bulardan: Facebook, YouTube, WhatsApp va Instagram eng ko'p ishlatiladigan media platformalari sirasiga kiradi. Bu platformalardan foydalanuvchilar yosh guruylar 18-29 yosh egalaridir. Hozirgi kunda eng

ommabop ijtimoiy media platformalaridan biri bu Facebook bo'lib, oyiga 2,989 milliard faol foydalanuvchiga ega. YouTube ikkinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib oyiga 2,527 milliard faol foydalanuvchiga ega. WhatsApp uchinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib oyiga kamida 2 milliard faol foydalanuvchiga ega. Instagram to'rtinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib, oyiga 2 milliard faol foydalanuvchiga ega. TikTok beshinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi bo'lib, oyiga 1,9 milliard faol foydalanuvchiga ega. Bundan kelib chiqqan holda o'rtacha odam televizor tomosha qilishdan ko'ra ko'proq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazadi. Ayniqsa bu ko'rsatkich yoshi kattalar orasida oshib bormoqda. Ammo bu raqamli inqilob ortida qanday sehr bor ekan? Xususan, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlardan ko'p foydalanish turli muammolarga olib keladi. Masalan, inson xavotirlanib, yolg'izlikni kuchliroq his qila boshlaydi. Buning natijasida ish, o'qish va yaqinlarga e'tiborsiz bo'lib qolishadi. Bunday insonlar uchun ijtimoiy tarmoqlar ular hayotining mazmuniga aylanib ulgurgan. Shu sababli Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishlar soni ortib borayotganligi o'z urnida brendlari o'z mahsulotlari va xizmatlarini ilgari surish uchun ham misli ko'rilmagan imkoniyatlarga ega bo'ldi. Ajablanarlisi shundaki 54foiz odamlar mahsulot tadqiq qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarga murojaat qilishadi va 49 foiz xarid qilish bo'yicha qaror qabul qilishadi. Shuningdek, yurtimizda bo'lib o'tgan pandemiya davrida ham ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq ish o'rnlari ko'plab boshqa sohalarga qaraganda ancha chidamli bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizdagi o'rnini inkor qilib bo'lmaydi. Ammo undan haddan tashqari ko'p foydalanishimiz natijasida turli muammolar kelib chiqmoqda hatto insonni jinoyat ko'chasiga boshlayotgani ham hech kimga sir emas. Eng achinarlisi shundaki, din nomi bilan ish yuritayotgan kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlarga ilintirishda ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanmoqdalar. Afsuski, ko'pgina yoshlari islam dini niqobi ostida olib borilayotgan buzg'unchi harakatlarning qurban bo'lib, din dushmanlarning quroliga aylanib qolmoqda. Chunki, ular o'zlarini yaqin do'st, hidoyatga chorlovchi sifatida tanilib, yoshlarni o'zlariga ishontirmoqda va bundan kelib chiqqan holda o'z o'rnida yoshlari o'rtasida so'rovnomada o'tkazildi. Ushbu so'rovnomadan ko'zlangan maqsad yoshlarning mazkur masala yuzasidan fikrlarini o'rganish bo'ldi. Buning natijasida bir hafta davomida 110 dan ortiq ishtirokchi Internetdagagi ijtimoiy tarmoqlar yoshlari hayotida qanday o'rin tutadi? so'rovnomasiga o'z munosabatlarini bildirdi. Qizig'i shundaki, o'quvchilarining 32 foizi ushbu tarmoqlar do'star orttirish, manfaatli tanishuvlar uchun kerak degan fikrni ma'qullagan bo'lsa, yana shuncha foydalanuvchi tarmoqlarning yoshlari tarbiyasi va odob axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganini tan oldi. Shunday ekan bugun ijtimoiy tarmoqlar qanchalik ommalashmasin, uning salbiy oqibatlarini ko'ra bilayotganlar safi ham oshib bormoqda. Salbiy tomoni bilan bir qatorda ijobjiy tomlarini ham ko'rayotgan ijtimoiy tarmoqlar haqida yaxshi fikr bildirayotgan yoshlari ham ko'p oramizda. Faqat biz buni ham ko'ra bilishimiz lozim. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarning hamma uchun qo'layligi, tezda axbarot almashish mumkinligi, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z dunyo qarashini namoyon qilish, professional ijtimoiy tarmoqlar professional mavzularda muloqot qilish, tajriba va axbarot almashish, bo'sh ish o'rinalarini qidirish va taklif qilish biznes va boshqa sohalarda ham keng imkoniyatlar ochib beradi. Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqlar arzon va bepul ta'lim olish, balki ilim tarqatishda ham qo'l keldi. Turli soha mutahasislari o'z

mahoratlarini namoyish etishi mumkin bo'lib qoldi. Bularga misol qilib, bloger va yana boshqa ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotgan insonlarni aytishimiz mumkin. Xususan, shu yo'naliш bo'yicha millionerga aylanganlar ham ko'p oramizda. Birgina telegram orqali ishbilarmonlik faoliyatini misli ko'rilmagan darajada yuksaltirib borayotganlar ham talaygina. Yana shuni aytishimiz mumkinki, ijtimoiy tarmoqlarda og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolganlar, moddiy-manaviy himoyaga muhtoj qatlamga yordamlar ham uyishtirishimiz mumkin. Bu ayniqsa so'nggi yillarda tobora keng quloch yoyyapti desak adashmagan bo'lamiz. Bu bilan faqat yordam aksiyalaridan muhtojlarning o'ziga foya topmaydi. Balki xayr-ehson qilgan, birovga yordam qo'lini cho'zgan kishi ham ma'naviy, ham ruhiy poklanadi, hayotga muhabbat, g'ayrat shijoati ortadi. Xulosa qilib aytganda, biz kabi yoshlar bo'sh vaqtini faqat sotsial tarmoqlarda o'tirish bilan o'tkazishlari noto'g'ri. Chunki, jonli, haqiqiy va real muloqot o'rnini hech narsa bosa olmaydi. Yoshlar kitob o'qishlari, o'z ustilarida ishlashlari hamda ijtimoiy faollikni oshirishlari lozim. Tarmoqdagi faoliyat hech narsani belgilamaydi va inson to'g'risida haqqoniy bo'lмагan ma'lumotlarni saqlashi mumkin xolos. Yana shuni aytamizki, biz sotsial tarmoqlarning hayotimizga bo'lgan ta'sirini rad etaolmaymiz. Biz ongli ravishta sotsial tarmoq a'zosi bo'la turib, real hayot va virtual hayotni farqlay bilishimiz lozim. Bundan kelib chiqqan holda shuni aytamizki, yuqorida keltirilgan holatlar tobora avj olib borgani sari insoniyat zamonaliv texnologiyalarning chinakam quliga aylanishi aniq. Har bir inson uchun o'zining vaqtin o'zi uchun qadrli va zarur bo'lishi lozim. Kun kelib har birimiz bu dunyodan ko'z yumayotgan vaqtimizda yosh umr va havoga sarflagan behuda vaqtimizga afsuslanib qolmasligizmiz lozim. Shu boisdan ham ijtimoiy tarmoqlarga sarflagan biz uchun ko'z ilg'amas vaqtimizni o'z ustimizda ishlash tinimsiz mehnat qilishimiz uchun sarf qilsak maqsadga muofiqdir. Ijtimoiy tarmoqlar shunchaki texnologiyalar va zamonaliv axborotlarni o'z iznida boshqarishimiz kerakligini anglab yitishimiz uchundir. Shu sababli har nemat insonga xizmat qilsh uchun yaratilganligi ulardan o'z o'mida va me'yorida foydalanish lozimligini va u hech qachon yomon oqibatlarga olib kelmasligini unutmasligimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O`zbekiston milliy ensiklopediyasi – O`zbekiston Respublikasi.
- 2.Hamidullo o`g`li T.H (2022). Hozirgi kunning dolzarb imkoniyatlari. JAWS va NVDA dasturlari.
- 3.Ziyouz.com
- 4.Umidbek Hayitboyevich Adamboyev (2022). Ishonch – e`tiqodni shakllantirishda urf-odat va an`nalarning ta`siri, SCIENTIFIC PROGRESS (pp 348-351)
- 5."International Scientific research conference ".(20th February, 2022)- Belarus, MINSK:"CESS", 2022. Part 1-4 p.